

TA'LIM- TARBIYA JARAYONLARIDA XOJA BAHOUDDIN NAQSHBANDINING "YETTI PIR TA'LIMOTI" DAN FOYDALANISH

Aminov Baxtiyorjon Umidovich

QDU Tarix kafedrası dotsenti

Eroliyeva Nargizaxon Mahamadjonovna

Teshaboyeva Saodatxon Usmonaliyevna

Rishton tumani Barkamol avlod bolalar maktabi to'garak rahbari

Annotatsiya: Ushbu maqola Xoja Bahouddin Naqshband ma'naviy meros, odob-axloqqa oid asarlari, yetti pir ta'limotining inson kamolotidagi ahamiyati yoritib berilgan. O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish asosida ijtimoiy faollikni shakllantirish mazmuni, ijtimoiy faollikning tarkibiy qismi sifatida vujudga kelgan ziddiyatlar va muammolarni bartaraf etish ko'nikmasiga ega bo'lish o'quvchilarni kelajakda mikrososiumda munosib o'rin egallashlariga ko'maklashishi, o'quvchilar faoliyatida har doim namoyon bo'lmaydigan, biroq ularning xatti-harakatlari orqali seziladigan ijtimoiy faollikning muhim tarkibiy qismlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Yetti pir, ma'naviy meros, inson, qamolot, axloq, tariqat, ishorat, nafs mulki, xojagon, nafosat, komil

Annotatsiya: V dannoy statye raskryvayetsya soderjaniye formirovaniya sosialnoy aktivnosti na osnove formirovaniya bazovyx kompetensiy u studentov, umeniya preodolevat konflikty i problemy, vznikshiye kak sostavlyayuyaya sosialnoy aktivnosti, vklada studentov v osvoyeniye dostoyного mesta v budushyem mikrosyujete, analiza vajnyx sostavlyayuyix sosialnoy aktivnosti, kotoryye ne vseгда yavlyayutsya neobxodimymi.

Klyuchevyye slova: sem mir, duxovnoye naslediye, chelovek, sovershenstvo, moral' setka, znak ,vojdeleniye ,vladeniye, izoo'rennost' ,sovershenstvo

Annotation: In this article, the content of the formation of social activity on the basis of the formation of base competences in students, the ability to overcome conflicts and problems that have arisen as a component of social activity, the contribution of students to the development of a worthy place in the future microsim, the analysis of important components of social activity, which are not always

Keywords: Seven pir, spiritual heritage, man, perfection, morality, sect, sophistication, perfection

Mustaqillik yillarida Bahouddin Naqshband hayoti va ma'naviy merosiga oid manbalar tarjima qilindi, risola va maqolalar nashr etildi. Lekin, shunga qaramay, Bahouddin Naqshbandning hayoti va ma'naviy merosi ilmiy dalillar asosida tarixiylik va mantiqiylikka uyg'un ravishda yetarli darajada yoritilmagan. Bahouddin Naqshband hayot yo'li va ta'limoti haqidagi asosiy manbalar Salohiddin

ibn Muborakning «Anis ut-tolibin va uddat us-solikin», Muhammad Boqirning «Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband», Muhammad Porsoning «Risolai qudsiya» va Ya‘qubi Charxiyning «Risolai unsiya» asarlaridir. Bu manbalar asosida keyinchalik Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Faxriddin Ali Safiy va boshqalar o‘z tazkira, risola, maqomot va manoqiblarida Bahouddin Naqshband haqida ma‘lumot berganlar¹. Biz mazkur tadqiqotimizda Bahouddin Naqshbandning hayot yo‘llari va ma‘naviy meroslarini yangicha ilmiy yondashuv bilan yoritishni niyat qildik.

Bahouddin Naqshbandning tasavvuf ta‘limotidagi eng asosiy xizmatlaridan biri vaqt haqidagi ilmni inson kamolotining asosida qo‘ydi. Uning tarixiy xizmatlaridan biri «Vuqufi zamoni» – «Zamon, vaqtdan ogohlik» rashha – hayotbaxsh o‘gitlarini Naqshbandiya ta‘limotining asosiy tamoyili sifatida kiritdi. Vuqufi zamoni – inson o‘zi yashayotgan davr, zamon qanday kechayotganligidan ogoh bo‘lishi, umr bir bor berilishi va inson uni xayrli, ezgu ishlarga sarf etishi lozim, g‘aflatda qolmasligi, loqayd bo‘lmasligi, ogoh, hushyor, daxldor bo‘lishi kerak degan mazmun-mohiyatni anglatadi. Hujviri «Kashf ul mahjub» asarida vaqt ilmi haqida yozgan, Muhosibiy o‘tgan vaqtni doimo hisob-kitob qilib turish lozim degan, Abduxoliq

G‘ijduvoni «umr eng ulug‘ sarmoya, yo‘qotilgan vaqt shu sarmoyaning behuda sarflanishi» deb uni asrash lozimligini vasiyat qilganlar. Orif Revgariy «Orifnoma» asarida «Vaqt qilich kabi keskdir» degan. Umuman tasavvuf ahli vaqtni qadrlagan. Xojagon ta‘limotida Yusuf Hamadoni tomonidan kiritilgan «Hush dar dam» tamoyilida ham mazkur g‘oya aks etadi. Ammo Bahouddin Naqshbandning xizmatlari shundaki, «Vuqufi zamoni» rashhasini nazariy jihatdan asoslab, Naqshbandiya tariqati amaliyotida joriy etdi. Vaqt falsafiy tushunchasi olamning atributi bo‘lib, barcha ob‘yektlar mavjudligining davomiyligini va holatlar almashuvining izchilligini xarakterlaydi. Vaqt tushunchasi muhim falsafiy kategoriyalardan biri sifatida klassik fanda o‘ziga xos va noklassik fanda o‘zgacha talqin etilgan. Vaqt tushunchasi tasavvufiy ta‘limotda ham muhim sanalgan.

Bahouddin Naqshbandning «vuqufi zamoni» tamoyili nafsni jilovlash uchun juda katta ahamiyatga ega. «Bu qoidaga asosan, banda hamisha o‘z ahvolidan voqif bo‘lmog‘i lozim, toki har bir sifat o‘zgarishda (zamonida) bandaning holi qanday kechadi, mavjibi shukr bo‘ladimi yoki mavjibi uzrmi. Bu degan gap, solik (Haq yo‘lidan borayotgan kishi) o‘z umridagi har bir daqiqani, yaxshilik (xayr) bilan o‘tdimi yoki yomonlik (sharr) bilan o‘tdimi, buni doimo hisob-kitob qilib yashamog‘i darkor». Demak, «vuqufi zamoni»ga asosan Haq yo‘lidan borayotgan shaxs o‘z ahvolini nazorat qilishi, to‘g‘ri ish qilgan bo‘lsa shukr qilishi, gunoh qilgan bo‘lsa istig‘for aytib, Ollohdan mag‘firat so‘rashi lozim. Mavlono Ya‘qubi Charxiy ma‘lumot beradikim, hazrat Bahouddin Naqshband menga, og‘ir holatimga istig‘for etishga, tavba qilishga va yaxshi, xush ahvolimda shukr etishga amr etardilar va shu ikki holatga rioya etish vuqufi zamoni ekanligini aytar edilar.

Bahouddin Naqshbandning tasavvufdagi tarixiy xizmatlaridan yana biri qalb haqidagi ilmni Naqshbandiya ta‘limoti va amaliyoti asosiga qo‘ydi. U kishi «Vuqufi qalbiy», – «qalbdan ogoh bo‘lish» rashhasi – ha Xoja Baxouddin naqshband xayoti va ma‘naviy merosi yotbaxsh o‘gitini kashf etib, Naqshbandiya ta‘limoti tamoyili

sifatida joriy etdilar. Umuman tasavvuf ahli qalb masalasiga juda katta e’tibor beradi. Bu masalada Bahouddin Naqshbandgacha ko‘p fikrlar aytilgan, asarlar yozilgan, lekin aynan Bahouddin Naqshband «Vuqufi qalbiy» tushunchasini inson kamoloti uchun zaruriy tamoyil sifatida Naqshbandiya tariqatiga kiritdilar. Bahouddin Naqshbandning «Avrod» risolasi va u kishining aytganlari jamlangan Muhammad Porsoning «Risolai qudsiya» asarida aynan qalb insonning jismoniy va ruhiy olamini bir – biri bilan bog‘lab turgan markaz ekanligi, qalbda naqshlangan narsa xotirada muhrlanishi, qalb holati insonning butun holatini belgilashi va shuning uchun qalbni poklab turish, uni tashqi ta’sirlardan asrash, yomon hamsuhbatlar, yomon hissiyotlardan asrash lozimligini ta’kid etganlar. Bahouddin Naqshband qalbdan mudom ogoh bo‘lib, uni barcha iflosliklardan tozalab, unda faqatgina Allohning muhabbatini joylash lozimligini ta’kidlash bilan «Dil ba Yor»lik mohiyatini ochmoqdalar. Qalb – ilohiy xilvat makonida faqat ilohiy ishq, ilohiy muhabbat, butun borliqqa ilohiy muhabbat, ezgu niyat, ezguliklar mujassam bo‘lishi lozim. Kibr, hasad, g‘azab, kina, nafrat, o‘zga bog‘lanishlar – dunyoparastlik, suratparastlik, zohirparastlik, molparastlik, mansabparastlik kabi illatlardan qalbni tozalab turish kerak, deydilar

Bahouddin Naqshband o‘zi asoslagan Naqshbandiya ta’limotida insonni ma’rifatli bo‘lishiga maxsus e’tibor bergan. Tasavvuf ta’limotida ma’rifat – inson ruhiy kamolotining shariat va tariqatdan keyingi uchinchi bosqichidir. Bu ilohiy inoyat bilan beriladigan bir daraja bo‘lib, bunday martabaga yuksalgan shaxs Tangri taniydi, ya’ni u, avvalo, o‘zligini anglaydi, aslini biladi va shu orqali xudosini ko‘radi. Tasavvufdagi «Xudshunosi xudoshunosi ast», ya’ni «O‘zini, o‘z nafs va ruhini tanigan kishi Tangri ham taniydi», degan gap asl ma’rifatli bo‘lish mohiyatini ochib beradi. Orif Revgariyning «Orifnoma» asarida ma’rifatga katta e’tibor berilgan. Unda yozilgan: «Ma’rifatning chegarasi – nafsdan xoli bo‘lmoq va buning ta’biri (usuli) halol narsalardangina bahramand bo‘lmoqni odat qilmoqdir. Ma’rifat -qalbning Tangri taolo yagonaligini tasdiq etmog‘idir. Uning samarasi – Tangri tomon yuz tutmoqdir». Bahouddin Naqshband ma’rifatni keng ma’noda tushunadi. U ruhiy kamolotning asosiy maqsadini ma’rifatli bo‘lishdir, deb biladi. Ma’rifatni – ijmoliy (qisqa) va tafsiliy (to‘liq), deb ikkiga ajratadi. Bahouddindan so‘raydilar: «Sayru sulukdan maqsad nima?». U javob beradi: – «To ijmoliy ma’rifat tafsiliyga aylansin», ya’ni solik xabarchidan qisqagina qabul qilingan narsani, tafsil yo‘li bilan to‘la tanib olsin.

Xoja Baxouddin Naqshband xayoti va ma’naviy merosi Bahouddin ijmoliy ma’rifat bosqichida dalilu hujjat vositasi bilan, ya’ni aqlu tafakkur ila amal qilish mumkinligini aytadi. Tafsiliy ma’rifat martabasi esa kashf va ayonlik ila, ya’ni Tangri inoyati orqali hosil bo‘ladi, deydi. Bahouddin Naqshband: «Haqqa yetish talabida bo‘lgan soliklarning asl maqsadi tafsiliy ma’rifatdir», ya’ni Haqning talabida bo‘lgan inson – butun Kullga to‘la singib ketishi sayru sulukning oxirgi maqsadidir, deb belgilagan

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, Naqshbandiya ta’limotining asl mohiyatini bir so‘z bilan ifodalasak – insonlarni Alloh rizoligiga erishtirishdir. Bu tariqat ahli: «Iloho anta maqsudi va rizoka matlubi» – «Iloho mening maqsudim Sensan va Sening rizoliging matlubimdir» degan zikr hayotlarining mazmuni. Chunki Alloh

butun borliqni juda go‘zal bir tarzda mukammal va uyg‘unlikda yaratgan. Alloh rizoligi yo‘lida harakatda bo‘lgan inson o‘z o‘rnini anglab, o‘z vazifasini bajaradi va borliqni go‘zallashtirishga xizmat qiladi. Naqshbandiya ta‘limotining asl mohiyati jamiyatda tinchlik, xotirjamlikni barqaror bo‘lishi va xalqni farovon yashashini ta‘minlashga qaratilgan. Naqshbandiya ta‘limoti bunga erishish uchun zarur bo‘lgan, inson kamolotining sirru asrorlarini tatqiq, tahlil etib, o‘ziga xos juda go‘zal va mukammal yangi yo‘lni kashf etgan. Naqshbandiya boshqa tariqatlardan farqli ravishda insonning uruji, yuksalishi va kamolotining eng maqbul, me‘yordagi, mo‘tadil, eng qisqa va yaqin hamda beozor yo‘lini kashf etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1 Abdulxoliq G‘ijduvoni tavalludining 915 yilligini va Bahouddin Naqshband tavalludining 700 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish hamda uni o‘tkazish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi, № F-4988, 11 iyul 2017 yil.

2. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. 488-bet.